

YANGI O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ 2023

DAVRIYLI: 2018-2023



Карл Бенц
1885 год
Германия

Мощность:
0,9 л.с.

BIRINCHI BENZ AVTOMOBILI

Вид топлива:
бензин

Масса:
265 кг


Двигатель:
0,954 л



Тип кузова:
мотоколяска
без дверей
Число мест - 2

Компоновка:
переднемоторная,
заднеприводная

Колёсная
формула:
4x2



Ширина: 1200 мм

Высота:
1400 мм

Колея задняя:
1190 мм

Колёсная база:
1450 мм

Длина: 2400 мм




TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



MART
№50

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
8-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-8**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-8**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 50-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 17 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегияси-дан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофик:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истикболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Vafoqulova Go'zal Ochilovna ADABIYOT DARSLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI –DOSTON MAVZUSI.....	7
2. Тлеуниязова Гулмира ТЕҢЕЛБАЙ СӘРСЕНБАЕВ ЛИРИКАСЫНДА ОЙ-ПИКИРДИ ЖЕТКЕРИП БЕРИҰ УСЫЛЛАРЫ.....	9
3. Abdurashidova Shoxista Bahrom qizi ADABIY TA'LIMGA ZAMONAVIY YONDASHUV	11
4. Azimjonova Shaxnoza Dilshodbek qizi JADIDCHILIK ADABIY- TARIXIY JARAYONNING BIR QISMI SIFATIDA	14



АДАБИЁТ

ADABIYOT DARSLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI –DOSTON MAVZUSI

Vafoqulova Go'zal Ochilovna

(Samarqand davlat chet tillar instituti
akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi)
Telefon +998(97)9252885

Annotatsiya: Maqolada xalq og'zaki ijodi tarixida alohida bosqich sifatida o'rganiluvchi doston va uning turlari xususida atroflicha to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: «Doston», qahramonlik dostonlari, ishqiy-romantik dostonlari, jangnoma dostonlari, kitobiy dostonlar, tarixiy dostonlar.

Doston o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. «Doston» so'zi qiziq-qiziq voqealarni hikoya qilish, maqtash ma'nolarini anglatadi. Badiiy adabiyotimizda asosan ikki usulda yaratilgan dostonlar bor. Birinchisi, asrlar davomida xalq og'zaki ijoda baxshilar tomonidan kuylanib kelingan dostonlar. Ikkinchisi, yozma shaklda shoirlar tomonidan ijod qilingan dostonlar. «Alpomish», Go'ro'g'li turkumidagi «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Malikai ayyor», «Ravshan», «Kuntig'mish», «Rustamxon» kabilar og'zaki dostonlar namunalaridir. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro'z», Navoiyning «Hayratul abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi asarlari esa yozma adabiyotdagi dostonlar hisoblanadi.

Dostonni baxshilar kuylaydilar. Qadim zamonlarda «baxshi» xalqona usullar bilan bemorni davolovchi tabib, ayrim hududlarda ustoz ma'nolarini anglatgan. Bugungi kunda bu so'z asosan xalq dostonlarini kuylaydigan san'atkorni bildiradi.

Shulardan kelib chiqib dostonlarni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Qahramonlik dostonlari («Rustamxon», «Alpomish»).
2. Ishqiy-romantik dostonlar («Ravshan», «Kuntug'mish»).
3. Jangnoma dostonlari («Yakka Ahmad»).
4. Kitobiy dostonlar («Sayyod va Hamro», «Oshiq G'arib va Shohsanam»).
5. Tarixiy dostonlar («Oysuluv»).

Qahramonlik eposi xalq og'zaki ijodi tarixida alohida bosqich sifatida baholanadi. Bunday asarlarlarda alohida qahramonlik va mardlik namunasini ko'rsatgan xalq farzandining yurt ozodligi, elni birlashtirish maqsadidagi safarlari, o'zidan son va kuch jihatdan yuqori bo'lgan olishuvlari aks etadi. Uning mashhur namunasi yunonlarda «Odessiya» va «Iliada» asarlari hisoblanadi. Qirg'iz xalqining «Manas»i ham ana shunday bosqich namunasidir. O'zbeklarda «Alpomish» dostoni misol bo'ladi.

Romantik dostonlar deganda, xalq dostonlarining mazmunan sevgi sarguzashtlarini aks ettiruvchi turlari tasavvur qilinadi. «Ravshan», «Kuntug'mish» kabilarni ana shular qatoriga qo'shish mumkin.

Jangnoma dostonlarni esa voqea rivoji asosan jang lavhalariga boy asarlar tashkil etadi. Baxshilar bunday dostonlarni nisbatan kam ijro etganlar. Bunday dostonlarda ko'proq qahramonning botirligini tasvirlashga e'tibor beriladi. «Yusuf bilan Ahmad», «Alibek va Bolibek», «Qirq ming» kabi asarlar shular jumlasidandir.

Kitobiy dostonlar yozma va og'zaki ijodning o'zaro aloqalari natijasida vujudga kelgan. O'zaki ijoddagi «Sayyod va Hamro», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Vomiy va Uzro» kabi dostonlar ana shu usuldagi asarlar namunasidir.

Tarixiy dostonlarda tarixiy voqealar tinglovchida shubha uyg'otmaydigan to'qimalar vositasida aks ettiriladi. Ammo ularda tarix qanday bo'lsa, xuddi shu tarzda, to'kis ravishda o'zgarishsiz bayon etilmaydi. «Oysuluv» ana shunday doston sanaladi. O'zbekistonda xalq dostonlari Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Xorazm, Namangan viloyatlarida va Qoraqalpog'iston



muxtor respublikasida ijro etiladi. Ijro usuliga ko'ra o'zbeklarda Samarqand, Xorazm, Farg'ona (Namangan) dostonchilik an'analari mavjud bo'lib, Samarqandda ichki bo'g'iz ovozda, Xorazmda ochiq qo'shiq aytish yo'li bilan, Namanganda ochiq, ammo, musiqa asbobiga mos holda kuylanadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Doston aytuvchilar kimlar hisoblanadi?
2. Qanday dostonlarni o'qigansiz?
3. Dostonchilik maktabi deganda nimani tushunasiz?
4. O'zbekiston xalq baxshilaridan kimlarni bilasiz?

Mavzu yuzasidan ko'rgazma



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.To'xliyev va boshqalar. Adabiyot. (10-sinf va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik-majmua). "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent - 2017.
2. A.Rafiyev, N.G'ulomova. Ona tili va adabiyot. (Kasb-hunar kollejlari uchun darslik) - Toshkent.: 2006.



ТЕҶЕЛБАЙ СӘРСЕНБАЕВ ЛИРИКАСЫНДА ОЙ-ПИКИРДИ ЖЕТКЕРИП БЕРИЎ УСЫЛЛАРЫ

Тлеуниязова Гулмира

Ўз РИА Қарақалпақстан бөлими Қарақалпақ
гуманитар илимлер илим-изертлеў институты
үлкен илимий хызметкери, Нөкис қаласы
+99897 500 3736

Аннотация

Мақалада белгили қарақалпақшайыры Т.Сәрсенбаевтың дөретиўшиликләбораториясында қосық дөретиўде кеширме ағымын жеткерип берийўдиң базы бир көркем усыллары сөз етиледі.

Таяныш сөзлер: Т.Сәрсенбаев, ой-пикир ағымы, ишки композиция, көркем усыл.

Лириканың мазмуны – инсанның руўхый дүньясы, кеширмелериниң, ойларының, туйғыларының әлеми. Хәр бир шайыр усы “ишки дүнья кубылысларын” қосық арқалы жүзеге шығара алыў уқыбына ийе болады. Бунда бир неше көркем әдислер, шайырдың индивидуаль изленислери шайырдың хәм қосықтың өзине тәнлигин, айрықшалығын белгилеўши тийкарғы өзгешелик болып табылады. Қосықта көркем мазмунды шөлкемлестирийўшилик хызмети ишки композиция болады. Ишки композиция бул мазмунның өзи емес, ал мазмунның қурылысы, оның жеткерилип берилиў усылларының жыйнағы. Лирикалық шығарма композициясы аспектнен алып қарағанда оның бирликлери сыпатында қосық қатарларында ой-пикирди жеткерип берийўши усыллар, автордың көзқарасы, кеңислик хәм ўақыттың сәўлелениўи, образдың жаратылыўы, мотивлердиң хызмети, лирикалық сөз типлери, киритпе қатарлар, түс, пейзаж хәм т.б. алып қараўға болады. Деген менен, лирикалық сөз типлери шығарманы улыўма пүтинлик сыпатында алып қарағанда, оның сыртқы бирликлери сыпатында көзге тасланады. Ал, оларды қосықтың идеясын жеткерип берийўши функциясы көзқарасынан алып қарағанда, ишки композициялық сыпаты жүзеге шығады. Бунда анализлеўдиң мақсетине дыққат қаратыў лазым.

Лирикалық композицияны семантикалық аспектте изертлеўши алымлар лирика композициясында идеяның берилиў өзгешелигине қарай үш бөлимли композиция: баслаў (зачин), ен жайыў (разработка), жуўмақ (концовка) (терминлер шәртли түрде алынды, себеби, қарақалпақ тилинде терминлерди берийўши дәл сондай атамалар жоқ – Т.Г.), және де пикирдиң берилиўиниң тезис-антитезис-синтез [1] көринисинде шөлкемлесетуғынын тастыйықлайды.

Қосықтағы кеширмениң ағымы қосық қатарларында яки улыўма қосықты пүтинлик ҳалында алып қарағанда баслаўға, ен жайыўға, жуўмаққа ийе екенлиги анықланады. Лирикалық баслаўдың экспозициядан парқы сонда «лирикалық баслаў әдетте шайыр ушын керекли жөнелиске оқыўшыны бағдарлайтуғын эмоционалық гилтти береді» [4; 10]. Шығармада баслаў хәр түрли көринисте болады, гейде қосықтың дәслепки қатары, гейде еки қатарда, гейде толық бир шуўмақтың өзи баслаў ўазыйпасын атқарыўы мүмкин.

Т.Сәрсенбаевтың «Шайыр кетип баратыр, әне...» қосығында баслаў оның оқыўшыға мүрәжәти тийкарында берилген.

Жарылайын алдыңда бир пәс,
Кулағың сал, оқыўшым және,
Дәўиринен болған шала мәс,
Шайыр кетип баратыр, әне!... [2; 72]

Жети шуўмақтан ибарат қосықтың композициялық қурылысында баслаў менен жуўмақ дәслепки бәнттиң өзінде-ақ жәмлеп берилген. Қалған алты шуўмақта «шайырдың өз дәўиринен қалайынша мәс болғаны» избе-из таратып, ен жайдырылып сүүретленеди. Баслаў хәм жуўмақты булайынша бир қатарда берийў жақсы изленис, деген менен айырым шайырлар дөретиўшилигинде көп сөзлилик орын алып, бир-еки шуўмақта айтылатуғын пикирди шубалтып берийў ҳалатлары да көплеп ушырайды.

Шайыр лирикасында ой-пикирди жеткерип берийўде хәр түрли композициялық усылларды қолланады. Бул усыллардың бири аралас шеңберли композиция. Аралас



шеңберли композицияда пўтин бир қосыққа тән болған шеңберли композицияны пайда етип турған қайталаўланыўшы бирлик қосық басында, ортасында ҳам ақырындағы қатарда берилюи мүмкин. Бундай өзгешелик қосықтың көлемине, ондағы шеңберли композицияны тәмийинлеп турған қайталаўдың қайталаныў жийилигине байланысly. Мысалы:

Қырғаўыл шақырды...
Сестиңнен!
Сестиң –
Қәне еди, береалсаң өз ерки менен.
Сол бир реңлерди: жасылма, көк пе,
Лаплама сыяқлы қонған көк шөпке,
Қағазға салсаң-дә өз көрки менен!
Қырғаўыл шақырды,
Қораз қырғаўыл!
Паҳ!
Самал үрлеген оттай жарқылық!
Сулыўлықтың бәри саған алқынып –
Өзлерин алдыңда санады «пақыр»
Көкиректен шықса керек, көп нәрсе ақыр!
Қырғаўыл шақырды,
Әлемнің өзи –
Өзи ашық болды, өз лапызына,
Қырын қараңқырап «ханның қызы»на
Ҳаўаз шыққан таман түринди қулақ.
Делбедей дирилдеп, қыздай қалтырап.
... Қырғаўыл шақырды... [3; 33]

Мысалдағыдай қайталаныўшы бирликлердің қосықтың басында, ақырында келиўи менен бирге және де бир неше орынларда қайталаныўы көлемли лирикалық қосықларда ушырасады. Бунда қайталаўлар қосықты мазмунлық жақтан шөлкемлестирip, жетекши идеяға бағдарлап турады ҳам соның менен бирге лирикалық қаҳарманның толғанысларын еле де күшейтип, қосықтың тәсиршеңлигин де арттырады.

Т.Сәрсенбаев лирикасында ой-пикирди жеткерип бериўдеги бундай усыллар оғада көп. Шайыр шығармаларындағы ой-кеширме ағымын сәўлелендириў усылларын үйрениў оның дөретиўшилик дўньясын, соның менен бирге инсанның ишки әлемин аңлаўға жәрдем береди.

Әдебиятлар:

1. Кожинoв В.В. Теория литературы. Основные проблемы в истoрическом освещении. Роды и жанры литературы. – М.: Изд. АН СССР, 1964; Гусев В.И. В середине века: o лирической поэзии 50-х годов. – М.: Советский писатель, 1960; Гинзбург Л.Я. О лирике. – М.: Интрада, 1997; Сильман Т.П. Заметки o лирике. – Л.: Советский писатель, 1977; Носиров Р. Халқ кўшиқлари композицияси. – Т.: Фан, 2006.
2. Сәрсенбаев Т. Таңырқант. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1995.
3. Сәрсенбаев Т. Дўнья менен дәртлисиў. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1990.
4. Холшевников В.Е. Анализ композиции лирического стихотворения // Анализ одного стихотворения. – Л.: Изд. Ленинградского Университета. 1985.



ADABIY TA'LIMGA ZAMONAVIY YONDASHUV

Abdurashidova Shoxista Bahrom qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti
Ikkinchi bosqich magistranti
musulmankarashidova@gmail.com
+998915177177

Annonatsiya: Maqolada adabiyotni o'qitishda zamonaviy yondashuvlarning o'rni, adabiyot darslarini samarali o'tkazish metodlari va ularni qo'llash usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: sifatli ta'lim, hamkorlik pedagogikasi, jonli dars, badiiy tahlil, badiiy tamoyillar, IQ testlar, intellekt.

Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan belgilangan 2030-yilgacha yangi ta'lim konsepsiyasida “ta'lim-taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat” sifatida e'tirof etilib, aynan “ta'lim olish evaziga kishilar hayotini o'zgartirish” asosiy vazifalardan biri sifatida qo'yildi. Shuningdek, “sifatli ta'lim berish, ta'lim olishni yaxshilash va o'zlashtirish natijalarini baholash usullarini takomillashtirish” kabi dolzarb vazifalar belgilandi.

Yurtimizda o'z Vatanning taqdiri, uning buguni va kelajagi uchun mas'uliyatni chuqur his etadigan, mustaqil va yangicha fikrlaydigan kadrlarga ehtiyojni qondirish vazifasi biz mustaqillikka erishgan birinchi kunlardan o'ta muhim va hal qiluvchi masalaga aylangan edi. Mazkur maqsadlardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasiga alohida ahamiyat qaratildi.

Shunday ekan, ta'lim-tarbiya jarayonlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishni keng joriy etish muhim va dolzarb vazifalardan biridir. Bu vazifalarni amalga oshirish ta'lim muassasalarida kompyuter texnologiyalari asosida o'qitish tizimini rivojlantirish va elektron ta'lim tizimlarini yaratishni jadallashtirish, ularni o'quv jarayoniga faollik bilan tatbiq etish orqali ta'lim samaradorligini o'rnatishni talab etadi.

Bilamizki, imoratning poydevori binoning nechog'lik osmono'par va mustahkam bo'lishini ta'minlovchi muhim jihat. Xuddi shunday, o'quvchining, eng avvalo, iqtidori va bilimi qanchalik teran bo'lsa, uning o'zi qiziqqan fanini o'zlashtirishi ham shuncha oson kechadi. Shu bois ham bolalar tafakkurini rivojlantirish har bir ota-ona, pedagog va tarbiyachi oldidagi muhim vazifalardan biridir. Bolalarda tafakkurning rivoji o'ta intensiv kechadi. Mana shu intensiv taraqqiyotni yanada jadallashtirish mumkin. Buning uchun maxsus mashg'ulotlar bolalar bilan birga amalga oshirilsa, ulardagi tafakkur, nutq rivoji, mantiqiy fikrlash doirasi, savodxonligi, mustaqil fikrlay olish qobiliyati, qiziqishlari va shu kabi bir qator ijobiy sifatleri keskin oshadi.

Hozirgi kunda dars jarayonini jonli tarzda o'tkazish, undagi yangi mazmunni o'quvchilarga to'laroq yetkazish uchun pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamonaviy texnologiyaning dolzarb talabi bo'lib xizmat qiladi.

Jahon hamjamiyati bir-biriga intilishi, bu ayni paytda bir-birini boyitish jarayoni hamdir. Bunda badiiy adabiyotning o'ziga xos o'rni bor. Qolaversa, boshqalar tajribasini o'rganish har doim insoniyatga yutuq va yangilanish omili bo'lgan. Jahon pedagogikasi endilikda hamkorlikni asosiy tayanch nuqtasi, deb e'tirof etmoqda. “Hamkorlik pedagogikasi” degan alohida tushuncha va atamaning paydo bo'lganligi bejiz emas. Bu o'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabatlarning yangicha bosqichini anglatadi. Demak, endilikda pedagogik jarayonda “hokim-tobe”lik emas, tom ma'nodagi hamkorlik yuzaga keldi. Bu adabiy ta'limda, ayniqsa, ayrica ahamiyat kasb etadi. Zero, badiiy adabiyotni o'qish, o'rganish hamma payt ijodiy jarayondir. Bu jarayonda o'quvchilarning milliy qadriyatlar, asriy urf-odatlar bilan tanishishi, yaqinlashuvi jonli tarzda amalga oshadi. Bo'lajak adabiyot o'qituvchisi uchun badiiy adabiyotning o'ziga xos tomonlarini bilish, anglab yetish qanchalik muhim va ahamiyatli bo'lsa, ta'limning turli bosqichlarida adabiyot o'qitishning o'ziga xos qonuniyat va xususiyatlari bilan bog'liq siru asrnlarni egallash



ham shunchalik muhimdir.

Adabiyot darslarining nazariy jihatlarini haqida M.I.Maxmutov, M. N. Skatkin, Yu. K. Babanskiy, V. V. Golubkov, N. I. Kudryashev, O. Yu. Bogdanova, G.I. Belenskiy, L. N. Lesoxina, L.S. Ayzerman, Ye. N. Ilin, A.Zunnunov, M.Mirqosimova, Q.Yo‘ldoshev, S.Matjonov va boshqa metodist olimlarning tadqiqotlari mavjud. Ularda adabiyot darslarini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari, ularga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, adabiyot darslarida o‘quvchilar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va uni faollashtirish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish, dars samaradorligini oshirish, adabiyot darslarining ma‘rifiy, tarbiyaviy, estetik jihatlarini, badiiy asarni tahlil qilishda adabiyot darslarining o‘rni va ahamiyati, bunda o‘quvchilarning mustaqil, ijodiy ishlarini tashkil etishning yo‘l va usullari haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan. Mazkur tadqiqotlar nazariy jihatdangina emas, amaliy jihatdan ham o‘qituvchilarimiz uchun dasturilamal bo‘la oladi.

Adabiyot darslarida o‘quvchilar bilan ishlashning turli shakllaridan foydalanish imkonlari mavjud. Xususan, guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan alohida ishlashning qo‘shib olib borilishi yaxshi samaralar beradi. Adabiyot darslarida o‘qituvchi shaxsining mavqei alohida o‘rin tutadi. Aynan mana shu shaxs darsning maqsad va vazifalarini, adabiy materialni tanlashni, qaysi mavzularni o‘tishda qanday metod va shakllardan foydalanishni belgilaydi, dars jarayonining tashkil etilishini boshqarib boradi. Adabiyot darslarning oldiga qo‘yilgan pedagogik vazifalarning yechilishidagi vositalar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Adabiy materialning mazmuni;

Uni o‘rganish usullari; O‘qitishning texnik vositalari; O‘quvchilarning mustaqil ishlarini amalga oshirish imkonini beradigan didaktik materiallar; O‘quvchilar faoliyatini tashkil etish; O‘qituvchi shaxsi (M. N. Skatkin).

Adabiyot darslarining tarkibiy qismlari va bu qismlarning o‘zaro munosabatlari alohida e‘tiborga molik. An‘anaviy darslar o‘rniga yangicha shakl va usullar kirib kelyapti, ta‘lim jarayonida yangicha pedagogik texnologiyalar davri boshlandi, deb ayta olamiz.

Endilikda ilg‘or adabiyot o‘qituvchilari darsni uy vazifasini so‘rashdan emas, to‘g‘ridan-to‘g‘ri uy vazifasini berishdan, yangi mavzuni bayon etishdan, o‘quvchilarga mustaqil vazifalar topshirishdan boshlayotganlari odatdagi holga aylanib bormoqda. Bu jarayonlarda, ayniqsa, o‘quvchi shaxsining faollashuviga imkon beradigan usul va shakllarga ustuvorlik berilayotganligi ochiq seziladi. Darsda o‘quvchilarning oldin olgan bilimlari faollashtiriladi, ularda yangi tushunchalar, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi. Adabiyot darslari ham odatda, yangi bilimlarni berish, mavjud bilim va malakalarni mustahkamlash, o‘tilganlarni takrorlash, o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish kabi turlarga bo‘linadi. Alohida adiblar, adabiy asarlar, ular yashagan yoki yaratilgan tarixiy davrlar bilan bog‘liq holda esa kirish mashg‘ulotlari, o‘qish, badiiy asarni tahlil qilish kabi yakunlovchi mashg‘ulotlar tashkil etilishi mumkin. Bevosita materialning mazmuni va maqsadidan kelib chiqqan holda badiiy asarning o‘zini o‘rganish, adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganish, o‘quvchilar nutqini o‘stirish kabi darslar ajratiladi. Badiiy asarni idrok etish, uning matni ustida ishlash, asar ustidagi umumlashtiruvchi ishlarini tashkil etish bilani bog‘liq bo‘ladigan darslar ham mavjud.

Adabiyot darslarining samarasi haqida gapirganda, birinchi navbatda, uning o‘quvchi shaxsining kamol topishidagi foydaliligi nazarda tutiladi. Bunda, tabiiyki, uning fikrlash qobiliyatiga ijobiy ta‘sir o‘tkazish imkoniyati asosiy o‘rin tutadi. Adabiyot darslari shunday tashkil etilishi kerakki, o‘quvchilar butun dars davomida o‘quv faoliyatining ichida bo‘lsin, biror daqiqa bo‘lsin ijodiy ishlash imkoniyatidan tashqarida qolmasin. Chunki ruhshunos olimlarning fikricha, sog‘lom tug‘ilgan bolalarda qaysidir bir sohaga tabiiy ravishda qobiliyatning bo‘lmasligi mumkin emas. Ularni rivojlantirishning asosiy omili darslarni tashkil etishdagi asosiy metodlar, o‘qituvchining ish tajribasi va pedagogik mahorati bilan chambarchas bog‘liqdir. Sinfda o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatlari hukmronlik qilmas ekan, bu yerda ularning faol ishtiroki haqida, to‘laqonli o‘zlashtirishlari haqida gap bo‘lishi mumkin emas.

O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ham nazariy, ham amaliy ahamiyati mavjud. Mustaqil fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan o‘quvchining bilimi keng va chuqur, pishiq va barqaror bo‘ladi. Bunday o‘quvchilar bilimlarini turli sharoitlarda amaliyotga qo‘llay oladigan bo‘lishadi. Mustaqil ishlar turkumiga quyidagilarni kiritish mumkin:

-o‘quvchilarning aqliy-irodaviy, jismoniy kuchlarini talab etadigan ishlar;

-muayyan bilimlarni egallash bilan bog‘liq ishlar;



- bevosita amaliy topshiriqlarni bajarishga yo‘naltirilgan ishlar;
- muammoli vaziyatni his etish va uni bartaraf qilish bilan bog‘liqlashlar;
- topshiriq yoki vazifani bajarish jarayonida ijodiy yondashishni talab qiladigan ishlar;

Ma’lumki, «Adabiyot» darslariga noan’anaviy darslarni olib kirish va uni ta’lim mazmuniga singdirish, dars o‘tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta’lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o‘tib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otishda, milliy tilga, o‘z xalqining an’analariga iftixor hissini kamol toptirishda «Adabiyot» darslarining o‘rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o‘z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko‘zlagan holda ish olib borishimiz lozim.



JADIDCHILIK ADABIY- TARIXIY JARAYONNING BIR QISMI SIFATIDA

Azimjonova Shaxnoza Dilshodbek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrası

tayanch doktoranti

E-mail: shaxnoza0024@gmail.com

Tel:+998(99) 787 36 00

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid adabiyotining o‘rganilishi, jadidchilik harakatining adabiy-tarixiy jarayonning bir qismi sifatidagi talqini, akademik Naim Karimovning jadid adabiyoti xususidagi ayrim mulohazalari, xorij jadidshunoslarining tahlil va tadqiqlari muhokama tortilgan.

Kalit so‘zlar: jadidlar, tarixiy jarayon, fenomen, jadid teatri, jadid adabiyoti.

Jadid adabiyoti xalq hayotiga yangicha evrilishlar olib kirdi. Ijodiy yuksalish, ma’nan o‘rish, fan, ilm, ma’daniyat sohalari rivojiga turtki berish barobarida xalq turmush-tarziga munosabat hissini shakllantirdi. Jadidlar –milliy adabiyotimizda chin ma’noda fenomen, boisi bu kabi dadil qadamlar, ma’rifatparvarlik sari intilishlarga ega iqtidor sohiblari har bir adabiy davrda yetishib kamol topavermaydi. Jadidchilik – ancha chuqur, murakkab, ziddiyatli, ayni damda yangiliklarga, ezgu orzu-niyatlarga, amaliy faoliyatlarga to‘la bir ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma’rifiy harakatdir. Jadid ziyolilari uchun eski usuldagi maktablarni isloh etish, badiiy adabiyotni yangi o‘zanga solish, teatr sahnasini ibratxonaga aylantirish ahamiyatli edi.

Bu davr adabiyotini chuqur tahlil qilish masalasi ko‘p yillar adabiyotshunoslar oldida ko‘ndalang turdi. Ustoz olim Naim Karimov birinchilardan bo‘lib o‘zbek adabiyoti tarixini muhim davri jadid adabiyotini xolisona yoritish, haqiqatni to‘g‘ri ko‘rsatish jadidchilikni o‘rganishning bugungi kundagi ahamiyati haqida ko‘p bor so‘z yuritgan, g‘oyat muhim vazifa ekanligini e’lon qildi. ”Men XX asr o‘zbek adabiyoti tarixchilaridan biri sifatida mamlakatimiz xalqlarining yangi tarixi, ayniqsa, jadidchilik davrining to‘g‘ri va yorqin manzaralari orqali yoritilishini xohlardim. Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Munavvar qori singari jadidchilik nomoyandalarining asr boshlaridagi faoliyatlari mudroq Turkiston xalqlarini uyg‘otgan. Ular qalbi va shuuriga ma’rifat va madaniyat yog‘dularini sochgan ularda xurriyat va istiqloq g‘oyalarini uyg‘otgan” [3]. Istiqloq yillarida jadidchilik harakati va jadid adabiyoti nomoyandalarining faoliyatiga chuqur kirib borildi. N.Karimov, B.Qosimov, O.Sharafiddinov, B.Nazarov, A.Jalolov, D.Quronov, Sh.Rizayev, R.Tojiboyev kabi adabiyotshunoslarimizning dolzarblik kasb etuvchi qator ilmiy tadqiqotlari maydonga keldi. Ushbu tadqiqotlar jadid adabiy muhitining to‘liq mazmuni, harakatning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini, mavjud tarixiy jarayonda yozilgan adabiy asarlarning sajiyasini mohiyatan dalilladi. Yangi evrilishlar olib kelgan bu davr nafaqat o‘zbek adabiyotshunoslarining o‘rganish obektiga, balki xorij adabiyotshunoslarining ham tahlil obektiga aylandi. Bu haqda xorij jadidshunosi Edward Allworth ham ushbu fikrlarni beradi.” Jadidlar boshlang‘ich va o‘rta bosqichda “Yangi usul” maktablarini tashkil etib, o‘quvchilarni an’anaviy maktablarda qo‘llanilgan esdalikdan ko‘ra zamonaviy pedagogik usullar bilan o‘qitdilar. Savodxonlar uchun jadidlar ko‘plab qisqa muddatli gazetalar nashr etdilar va ko‘plab kitobchalarni toshbosma yoki bosdilar. Jadidlar savodsizlarga yetib borish uchun axloqiy xulq-atvorni rivojlantirishga qaratilgan didaktik spektakllarni ijro etib, birinchi zamonaviy mahalliy teatrni yaratdilar. Bu spektakllar Turkistonning aksariyat asosiy shaharlariga yetib bordi, biroq Buxoro va Xivada konservativ musulmonlar islohotchi teatrning kirib kelishini kechiktirishdi. Jadidlar Markaziy Osiyoliklarning aksariyati uchun yangi bo‘lgan ko‘plab g‘oyalarni tarqatdilar. Masalan, ayollar ozodligi, aholi salomatligini yaxshilash, mahalliy modernizasiya va tadbirkorlik. Islohotchilar giyohvandlik, ichkilikbozlik va piyodalikka barham berishga harakat qilishdi”[1].

Jadidlar davridagi adabiy tarixiy jarayon xususida turk adabiyotshunosi Emek Usenmez ” Jamiyatning bu davrida jadidchilarga qarshi bo‘lganlar ham bo‘lgan. Ayniqsa, ba’zi diniy guruhlar gazeta, jurnal va shunga o‘xshash faoliyat yaxshi emasligidan shikoyat qildilar. Gazeta ruknlaridan bu odamlarga berilgan javoblarda og‘ir ayblovlar va ziddiyatlar bor edi ”[2] - deya xolis bahosini beradi. Mavzu yuzasidan tadqiqot olib borgan Anqara Hoji Bayram Vali universiteti adabiyotshunosi Zaynobiddin Abdurashidov ham o‘z tadqiqotlarida jadidchilik



harakatiga hamda tarixiy jarayonga jadidshunos olim Begali Qosimov ilmiy merosiga murojaat etgan holda ilmiy tahlillar hamda dalillar beradi. Ilmiy izohlarida “jadidchilik harakat sifatida 1905- yilda shakllanib, muayyan tashkiliy xususiyat kasb etganligi, jadidchilikning tutgan yo‘nalishi aksilfeodal, mustamlakachilikka qarshi bo‘lib, Turkiston xalqining birinchi navbatda uning burjuaziyasini tashkil etgan qismining xohish va manfaatlarini ifodalaganligi, jadidchilik harakatining asosiy maqsadi milliy mustaqillikka erishish, siyosiy intilish va manfaatlarida jadidlar sosial-demokratlar bilan hamkorlik qilganligi hamda jadidchilik turli ijtimoiy guruhlar vakillaridan iborat ekanligi “ [7] xususida adabiy fikrlar beradi.

Naim Karimovning ilmiy ijodini o‘rganishda jadid adabiyoti tadqiqiga doir mulohazalari hamda adabiy-estetik qarashlari sohaga doir tadqiqotlarning rivojiga xizmat qiladi. XX asr boshlarida jadid adabiyoti millat va milliyat tushunchalarini adabiy va ijtimoiy hayotimizda akslanishini ta‘minladi. Jadid adabiyotining yetakchi g‘oyalari keyingi davrdagi o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga hamda shu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning dunyoga kelishiga sababchi bo‘ldi. Asr boshlarida jadidlar faoliyati o‘z navbatida ilm-fan, madaniyat, adabiyot, ta‘lim, xalq hayotining barcha jabhalariga o‘z ta‘sirini favqulodda ko‘rsatishi hamda adabiyot dunyosiga novatorlik xususiyatlarini olib kirishi bilan ahamiyatlidir. Ammo bugunga qadar olimlarning jadid adabiyotining paydo bo‘lishi va jadidlar masalasida turli fikrlari mavjud. Naim Karimov shu yo‘nalishdagi tadqiqotlarida Behbudiy, Abdulla Avloniy, Xamzaning vaqtli matbuotda nashr qilingan yozishma va maqolalarini tahlilga tortish orqali “XIX asrning oxiri — XX asr boshlarida Turkistonga yetib kelgan taraqqiyparvar gazetalar M.Behbudiy, M.Abdurashidov, A.Avloniy, Xamza, Fitrat, Cho‘lpon singari yoshlarni dunyoning boshqa mamlakatlarida yashovchi xalqlar hayoti bilan, yangi qurilgan asrning ma‘rifatparvarlik g‘oyalari bilan tanishtira boshladi. Xuddi shu yillarda Rossiya, Turkiya va Eronda sodir bo‘lgan inqilobiy voqealar haqidagi xabar ham shu nashrlar orqali Turkistonga yetib keldi” [5], - degan fikrni berdi. Ayrim olimlarning ba‘zi jadidlar haqidagi, xususan, o‘zbek xalqi tarixining xorijiy tadqiqotchilaridan biri Boymirza Xayitning Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon singari tom ma‘nodagi jadidlar bilan birga Komil Xorazmiy, Muqimiy, Furqat, Abay, Mulla Nafas, Zinhoriy singari ijodkorlarni jadidlar safiga qo‘shish kerakligi haqidagi fikrlariga olim keskin raddiya bildiradi. Ya‘ni N.Karimov bu xususda Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon ijodi bilan Komil Xorazmiy, Muqimiy, Furqat, Abay, Mulla Nafas, Zinhoriy ijodida mushtarakliklar yo‘qligini hamda fikr berishda asosli dalillar keltirish kerakligini ta‘kidlaydi.

Olimning 1998-yil 22-sentyabr “Milliy tiklanish” gazetasining 22- sonida nashr qilingan “Jadidlar 1916-yilda” nomli maqolasi ham jadidlarning milliy ozodlik kurashlaridagi, xurriyat masalasida olib borgan ishlariga aniqlik kiritadi. “Yurt kechmishlari” rukni ostida nashr etilgan ushbu ilmiy maqolada o‘zbek xalqining milliy ozodlik va xurriyat uchun olib brogan kurashi tarixida 1916-yil qo‘zg‘aloni va mo‘min-musilmonlarning tarixiy jarayondagi mustamlakachilikka qarshi kurashi masalalari yoritiladi. Jadidlarning ushbu tarixiy jarayondagi faoliyatiga baho berilgan. Olim adabiyotshunos va tarixchilarning mavzu xususidagi yozishmalarini sinchkovlik bilan maqolada tahlilga tortdi. Xamza ijodining ilk tadqiqotchilaridan Sharif Rizoning “Yangi saodat kurashchisi” (1939) maqolasidagi hamda H.Olimjonning “Jadid adabiyotining sinfiy mohiyati masalasiga” sarlavhali maqolasida jadid millatparvarlariga nisbatan “och ko‘zingni” deb baqiruvchi jadidlar yo‘lda chekinib qoldilar”- degan fikrlarni N.Karimov sho‘ro mafkurasi talabi bilan yozilganini ta‘kidladi. Shu o‘rinda N.Karimov sho‘ro davrining taniqli tarixchisi M.Vahobov “O‘zbek sotsolistik millati” (1960) kitobida maxsus masala yuzasidan bildirgan ayrim fikrlarini tahlil jarayoniga oldi. «Jadidlarning bu davrdagi gazeta va jurnallari qo‘zg‘olonchilarni qoralaydigan, podsho hukumatini maqtab, mardikorlikka borish musulmonlarning podsho oldidagi, hatto xudo oldidagi burchlaridan biri, deb tashviqot qiladigan maqolalar bilan to‘lib chiqardi. Masalan, «Al-isloh» jurnalining 1916- yildagi 16-sonida qo‘zg‘olonni bostirish uchun podsho tomonidan Turkistonga yuborilgan general-gubernator Kuropatkinga bag‘ishlab maxsus maqola chiqdi. Bu maqolada Kuropatkin ko‘klarga ko‘tariladi, qo‘zg‘olonchilar beboshlar, tartibsiz kishilar, deb qoralanadi”. Olim o‘z navbatida tarixchining fikrlariga xolis baho berdi: “Tarixchining bu so‘zlari tuhmatnamo bo‘yoqlardan holi bo‘lmasa-da, ularda haqiqat urug‘lari ham yo‘q emas. Chindan ham, jadidlar Kuropatkin sha‘niga hamd-u sano aytishdan o‘zlarini tiymadilar. Nafaqat Akbariy ismli jadid, balki Xamza, Avloniy, Tavallo singari shoirlar ham Kuropatkinga madhiya o‘qidilar. Ular qo‘zg‘olonni shafqatsizlarcha bostirish va bundan keyingi g‘alayonlarga yo‘l qo‘ymaslik sharti bilan Turkiston o‘lkasining yangi general- gubernatori etib tayinlangan Kuropatkinning tosh ko‘nglini shunday yo‘llar bilan eritmoqchi bo‘ldilar”[6]. Bu



o‘rinda akademik 1916-yil voqealarida jadidlar faoliyatini isloh qilishga hamda tarixiy jarayonga xolis bahosini berdi.

Olimning jadid adabiyoti yo‘nalishidagi tadqiqotlari yakuniga yetgani yo‘q. Bugungi kunda ham dolzarblik qilgan jadid adabiyoti xususidagi fikrlari g‘oyat o‘rinlidir. “Turkistondagi jadidchilik harakatini Tatariston, Ozarbayjon va Turkiyadagi jadidchilik harakati bilan qiyosiy o‘rganish, ular o‘rtasidagi ijodiy aloqa va hamkorlik sahifalarini nurlantirish qanday muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, bu masalalar ustida xorijiy olimlar bilan birga ishlash, jadid adabiyoti namoyandalarining asarlaridan iborat “Turkistondagi jadid adabiyoti” turkumini va “Turkiston jadidlari” biografik kitoblar turkumini yaratish undan-da katta ahamiyatga molik”[4]. Olimni o‘yga toldirgan maslalar adabiyotimiz sajiyasining umumiy manzarasini chizishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, “Xalqaro jadidchilik akademiyasi”ni barpo etish haqidagi mulohazalari davr uchun dolzarblik kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.E.Allworth.Activities of the Jadid Reformers, [https://www.britannica.com/topic/ Activities-of-the-Jadid-reformers-1707518](https://www.britannica.com/topic/Activities-of-the-Jadid-reformers-1707518), (18.05.2020).
- 2.Emek Usenmez.The jadid () (ديـڭج Reform) Period of Uzbek Literature (1905-1930) And Crimean Tatar Turkish Ismail Gasprinskī.Academik journal of history and idea.2013.2083.
- 3.N.Karimov.O‘zlikni anglash –tarixni bilishdan boshlanadi. Jadidchilikni o‘rganishning bugungi kundagi ahamiyati haqida.Xalq so‘zi.1999-yil 8-yanvar soni
- 4.N.Karimov.Milliy uyg‘onish va taraqqiyot davrining yoqut yulduzlari.Yangi O‘zbekiston.2023.10-yanvar.№5
5. N.Karimov.XX asr boshlaridagi tarixiy vaziyat va jadidchilk harakatining vujudga kelishi// Jadidchilk .Islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash.Toshkent.Universitet.1999
- 6.N.Karimov.Jadidlar 1916-yilda //Milliy tiklanish.1998.22-sentyabr.
7. Z.Abdurashidov. See discussions, stats, and author profiles for this publication at: [https://www.researchgate.net/publication/ 324833410](https://www.researchgate.net/publication/324833410) Study of Jadidism in Independent Uzbekistan

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 8-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000